



ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2022-yil, 4-son (134) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Filologiya, Sotsiologiya, Pedagogika, Psixologiya

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor

H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV

- O‘zFA akademigi

A. SAGDULLAEV

- O‘zFA akademigi

M. MUXIDDINOV

- fil.f.d., professor (SamDU)

B. E. ERGASHEV

- t.f.d., professor (SamDU)

B. S. G‘OYIBOV

- t.f.d., professor (SamDU)

S. K. KARIMOV

- fals.f.d., professor (SamDU)

J. Ya. YAXSHILIKOV

- fals.f.d., professor (SamDU)

N. U. ARABOV

- i.f.d., professor (SamDU)

Sh. A. HASANOV

- fil.f.d., professor (SamDU)

S. A. KARIMOV

- fil.f.d., professor (SamDU)

N. Sh. SHODIEV

- ped.f.d., professor (SamDU)

M.M. MAXMUDOVA

- ped.f.d., professor (SamDU)

NAZIF SHAHRANY

- Indiana universiteti professori (AQSh)

MUSTAFA UGURLU

- профессор (Мугла университети, Турция)

N.T.NURULLAXODJAYEVA

- professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)

TAMIR KLEIN

- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)

HIROAKI HUZIIE

- Osaka universiteti professori (Yaponiya)

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

FILOLOGIYA/PHILOLOGY		
Buzrukova M. Iltimos nutqiy akti o‘zbek lisoniy madaniyatida voqelanishining pragmalingistik ko‘rsatkichlari		4-10
Бабакулов И.Т., Бурханова Г.С., Маджидова Х.И. Об изучении словообразовательных категорий глаголов русского и узбекского языков		11-14
Жумаева Ф.Р. Отражение проблемы транспозиции частей речи в современных лингвистических исследованиях.....		15-19
Ким С.Ф. О переходности и синкретизме как системном явлении в русском языке.....		20-24
Xoliqulova G.Y. “Boburnoma”da Bobur adabiy muhiti tashakkuli tasviri.....		25-28
Xolmuxamedov B.F. O‘zbek tilshunosligida milliy korpusni yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar sharhi		29-34
Qurbanov S.A. Badiiy matnda iboralarning pragmatik xususiyatlari.....		35-40
Юлдашева Д.М. Факторы культурного различия в лингвистическом сопоставлении и в переводе.....		41-45
SOTSILOGIYA / SOCIOLOGY		
Muhammadyunusova M.M. Gender tenglikni ta’minlashning huquqiy asoslari.....		46-50
Negmatova D.I. Mahallabay ishslash tizimida jamoatchilik nazoratining ijtimoiy ahamiyati.....		51-54
Axmedov N.X. “Kichik biznes”, “xususiy tadbirkorlik” va “o‘rta sinf” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi: sotsiologik yondashuv.....		55-59
Burhanov X.M. Internet kiber makonida milliy segment faoliyatining ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni.....		60-65
PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS		
Alikariyeva A.N. Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim sifati menejmenti tizimini rivojlantirish omillari		66-75
Djabbarov B., Christo Ananth Kognitiv faollikni rivojlantirish – ta’lim samaradorligini oshirish omili sifatida		76-80
Raximov A.A. Zamonaviy o‘qituvchining pedagogik faoliyatida ma’naviy-ma’rifiy faoliyat prinsiplarining tutgan o‘rni.....		81-85
Mahmudova D.X. Matematika to‘garaklarning tashkil etishda akmeologik yondashuvdan foydalanish.....		86-89
Исройлова Д.М. Интернационализация программ при формировании межкультурной компетенции у студентов-инженеров.....		90-98
Karaxonova O.Y. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sanogen fikrlashni shakllantirish.....		99-103

Fayziyev N.A. Umumta'lim maktablarida "informatika va axborot texnologiyalari" fanidan algoritm tushunchasi va uning xossalari mavzusiga doir kompyuter imitasion modeli yaratish metodikasi	104-107
Шамсундинова Л.Р. Учёт фактора социальной направленности прагматической компетенции при обучении иностранному языку.....	108-111
Ro'ziyeva S.H. Ona tili sintaksi fanini o'qitishda modellashtirish metodi zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida.....	112-117
Tillayeva R.T. Yuqori sinf o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish.....	118-122
Dustov J.A. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sport turizmi vositasida ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish.....	123-127
Ermatov Sh.S. Jismoniy tayyorgarlik bo'yicha iqtidorli bolalarni futbolga tanlashda ishonchli va informativ testlarni qo'llash.....	128-133
Asadullayeva N. Bo'lajak o'qituvchilarda faol fuqarolik kompetensiyasini mustahkamlashga qaratilgan pedagogik jarayonni rivojlantirish omillari.....	134-137
Berdimuratov M.E. Kasanachilik -yoshlarga ta'lim-tarbiya berish va kasb o'rgatishning zamonaviy yo'nalishi	138-144
Quybakov X.R. Umumta'lim maktablarida va akademik litseylarda fizika fanini o'qitishda motivatsiyani shakllantirish	145-149
Ганчарёнок И.И., Жабборов Н.М., Юсупова Ш.Б. Использование кредитно-модульной системы в дистанционном обучении	150-156
Eshbo'riyev R., Elmurodova S.A. Rivojlangan xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish tajribalari.....	157-163

PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY

Bekmurodova H. O'smirlik davridagi yoshlarning kasb tanlashidagi asosiy omillar.....	164-167
Avezova D.G. Kuchkarova F. Autizm sindromli bolalarning muvaffaqiyatli moslashuvida psixologik metodikalar.....	168-173
Radjabov A.A. Sportchilarda barqaror emotsiyonal holatni shakllantiruvchi optimal mashqlar to'plami.....	174-179
Alimardonov Z.Sh. Kommunikativ kompetentlikning psixologik mohiyati.....	180-185
Mualliflarga	

UDK: 37:494.3

**ONA TILI SINTAKSISI FANINI O'QITISHDA MODELLASHTIRISH METODI
ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA SIFATIDA**

S.H.Ro'ziyeva

Buxoro davlat universitetining

Annotatsiya. Maqolada modellashtirish texnologiyasining oliy ta'lismi ona tili sintaksisi fani darslari jarayonida zamonaviy yondashuv sifatida qo'llanilishi to'g'risida fikr yuritilgan. Shuningdek, maqolada modellashtirishning ta'limga zaruriyati hamda afzalliklari haqida ma'lumotlar berilgan. Modellashtirish texnologiyaning matematik hamda tabiiy metodlari qiyoslangan.

Kalit so'zlar: ta'lismi, tarbiya, o'qitish, modellashtirish, zamonaviy yondashuv, optimallashtirish, oliy ta'lismi, uzlusiz ta'lismi, pedagogika, lingvistika, tilshunoslik.

Метод моделирования при обучении синтаксису родного языка как современная педагогическая технология

Аннотация. В статье рассматривается использование технологии моделирования как современного подхода в процессе проведения занятий по синтаксису родного языка в высшем образование. Представлена информация о необходимости и преимуществах моделирования в образовании. Проводится сравнение математического и естественного методов технологии моделирования.

Ключевые слова: образование, воспитание, обучение, моделирование, современный подход, оптимизация, высшее образование, непрерывное образование, педагогика, лингвистика.

Modeling method in teaching native language syntax as a modern pedagogical technology

Abstract. The article discusses the use of modeling technology as a modern approach in the course of higher education native language syntax classes. The article also provides information about the necessity and benefits of modeling in education. Mathematical and natural methods of modeling technology are compared.

Keywords: education, upbringing, teaching, modeling, modern approach, optimization, general secondary education, continuing education, pedagogy, linguistics, linguistics

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 23-avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash vazifalariga to'xtalib, shu maqsadda ta'lismi tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. O'zbekistonda ta'lismi boshqa davlatlar ta'lismi tizimidan turli xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, yurtimizda yo'lga qo'yilgan uzlusiz ta'lismi barcha rivojlangan mamlakatlarni o'ziga jalb qilmoqda. Uzlusiz ta'lismi - o'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lismi. Uzlusiz ta'lismi orqali yoshlarni bilimli va savodxon bo'lib yetishishlari, eng muhim, jamiyat uchun kerakli kadr bo'lib yetishishlari asosiy maqsad qilib olingan. 2017-yil 7-fevralda imzolangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" IV bobi "Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari" bo'limining "Ta'lismi va fan sohasini rivojlantirish" bo'limi aynan ta'lismi sohasiga bag'ishlangan: "Uzlusiz ta'lismi tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lismi xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlarigamos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; umumiyl o'rta ta'lismi sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish; ta'lismi va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lismi muassasalarini faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lismi muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish,

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyatga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliv o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriylar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etishdan iboratdir. Bugungi kunda umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi hamda oliv ta’lim muassasalarida Ona tili fanini o‘qitishning asosiy vazifasi: O‘quvchi shaxsini fikrleshgga, o‘zgalar fikrini anglashgga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; O‘zbek (ona) tilini o‘qitish markazida til o‘rganuvchilarining o‘zaro hamda o‘qituvchisi bilan nutqiy muloqoti turmog‘i lozim bo‘ladi. Ammo mana shu muloqot to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi uchun grammatika qonun-qoidalarini yaxshi bilishga ko‘maklashuvchi topshiriqlardan iborat mashg‘ulotlar nazariy yoki ahamiyat kasb etibgina qolmay, o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini shakllantiradi, orttirishga ham hissa qo‘shishi talab etiladi. Ana shu qiziqishni shakllantirishda, uni tobora mustahkamlab borishda sintaksisni o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy tafakkur sohibi, ya’ni o‘sayotgan, rivojlanayotgan va taraqqiyot sari yuz tutayotgan mamlakatimiz uchun zarur bo‘lgan, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish ona tili ta’limi oldida turgan eng muhim dolzarb vazifa hisoblanadi. O‘zbek tilida tilishunoslikning katta bo‘limlardan biri bo‘lmish sintaksis bo‘limining asosiy o‘rganish obyektlaridan biri gap bo‘laklarini o‘qitishda ta’lim berish usullarining qaysilaridan foydalanilsa ta’lim sifati, mavzuni o‘rgatish sifati oshishi masalasi bugungi kunning dolzarb masalasi bo‘lib qolmoqda. Shuni ta’kidlash joizki, insoniyatni farovon hayot shart-sharoitlarini yaratish, tabiiy ofatlarni oldindan aniqlash muammolari qadimdan qiziqtirib kelgan. Shuning uchun ham insoniyat tashqi dunyoning turli hodisalarini o‘rganishi tabiiy holdir.

Aniq fan sohasi mutaxassislari u yoki bu jarayonning faqat ularni qiziqtirgan xossalaringina o‘rganadi. Masalan, geologlar yerning rivojlanish tarixini, ya’ni qachon, qayerda va qanday hayvonlar yashaganligi, o‘simliklar o‘sganligi, iqlim qanday o‘zgarganligini o‘rganadi. Bu ularga foydali qazilma konlarini topishlarida yordam beradi. Lekin ular yerda kishilik jamiyatining rivojlanish tarixini o‘rganmaydi bu bilan tarixchilar shug‘ullanadi. Atrofimizdag‘ dunyoni o‘rganish natijasida noaniq va to‘liq bo‘lмаган ма‘лумотлар олиниш мумкин. Lekin bu koinotga uchish, atom yadrosining sirini aniqlash, jamiyatning rivojlanish qonunlarini egallash va boshqalarga xalaqit bermaydi. Ular asosida o‘rganilayotgan hodisa va jarayonning modeli yaratiladi. Model ularning xususiyatlarini mumkin qadar to‘laroq aks ettirishi zarur. Modelning taqribiylid xarakteri turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, tajriba o‘tkazish mobaynida foydalaniladigan asboblarining aniqligi olinayotgan natijaning aniqligiga ta’sir etadi.

Model tushunchasi lotincha “modelus” so‘zidan olingan bo‘lib, tabiiy fanlar yoki umuman fanda shunday moddiy qurilma sifatida tushuniladiki, unga muayyan obyekt haqida ma’lumotlar kiritilganda hosila sifatida yana shu obyekt yuzaga keladi. Boshqacharoq tushuntirganda, model tabiiy obyektlarning immitatsiyasidir (o‘xhashi, taqlidi, tabiiy ko‘rinishidir) [3,97], u o‘zbek tilidagi qolip, andoza so‘zlariga mos keladi[3,97]. U hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘taydi va aniq yoki mavhum obyektlar, kichraytilgan obyektlar va sxemalarda tadqiq etiladi. Buni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bo‘lsak, olmani xarakterlovchi belgilar, atributlar – uning dumaloqligi, mevaligi, shirinligi kabilar o‘sha tushunchaning fikriy modeli hisoblanadi. Agar biz olmani loydan yoki sun‘iy bir materiallardan yasasak, bu uning moddiy modeli hisoblanadi [3,57-59]. Model quyidagi asoslarga ko‘ra bilishda muhin hisoblanadi: Model tushunchasi lotincha “modelus” so‘zidan olingan bo‘lib, tabiiy fanlar yoki umuman fanda shunday moddiy qurilma sifatida tushuniladiki, unga muayyan obyekt haqida ma’lumotlar kiritilganda hosila sifatida yana shu obyekt yuzaga keladi. Boshqacharoq tushuntirganda, model tabiiy obyektlarning immitatsiyasidir (o‘xhashi, taqlidi, tabiiy ko‘rinishidir) [3,97], u o‘zbek tilidagi qolip, andoza so‘zlariga mos keladi[3,97]. U hodisalarning yuzaga kelishi uchun asos vazifasini o‘taydi va aniq yoki mavhum obyektlar, kichraytilgan obyektlar va sxemalarda tadqiq etiladi. Buni oddiy hayotiy misol bilan tushuntiradigan bo‘lsak, olmani xarakterlovchi belgilar, atributlar – uning dumaloqligi, mevaligi, shirinligi kabilar o‘sha tushunchaning fikriy modeli hisoblanadi. Agar biz olmani loydan yoki sun‘iy bir materiallardan yasasak, bu uning moddiy modeli hisoblanadi [3,57-59]. Model quyidagi asoslarga ko‘ra bilishda muhim hisoblanadi.

Birinchidan modellashtirish har bir fan obyektni soddalashtiruvchi metoddir. Lingvistik birliklarni modellashtirish bu belgilar tarkibidagi elementlarning barqaror munosabatlariiga asoslanadi. Shuning uchun ham butunlik tarkibidagi elementlar o‘rtasidagi munosabatlarning barqaror va beqaror turlarga ajratilishi lingvistik modellashtirish uchun katta ahamiyatga ega. Ikkinchidan modellashtirish

barcha fanlar uchun xos bo‘lgan umumilmiy metod hisoblanadi va u quyidagi tamoyillarga amal qiladi: deduktivlik – mantiqiy xulosa chiqarishga asoslangan hamda xususiylikdan umumiylitka tamoyilida bo‘ladi; tafakkur eksperimentidan foydalanish - modelni ideallashtirilgan obyekt sifatida talqin qilishdan iborat bo‘ladi.

Lingvistik model tushunchasi struktur tilshunoslikning E.Sepir, L. Blumfeld, R.Yakobson, Xomskiy, Harris, Hokket kabi namoyandalari tomonidan kiritilgan. Uning taraqqiyoti esa XX asrning 60-70 yillariga (matematik va kibernetik lingvistika rivojiana boshlagan davrga) to‘g‘ri keladi. Lingvistik modelni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Inson nutqiy faoliyati modellarini. Bu modellar konkret nutq jarayonini va hodisalarini aks ettiradi. Masalan, aniq bir tovushning talaffuz modeli yoki nutqning yuzaga chiqish modeli.

2. Lingvistik tadqiqot modellarini. Bunda muayyan til hodisalarini asosida olib borilgan tadqiqot jarayonini aks ettiradi.

3. Metamodellar – bunda lingvistik modellar saralanadi, u gipotetik-deduktiv xarakterga ega bo‘ladi, o‘ta abstraktlashgan va ratsionallashgan bo‘ladi. Modellashirish metodi ayrim tillarga, jumladan, ingliz tiliga faol tatbiq qilingan. O‘zbek tilida sodda gapning qurilish qolipi: S + O + V : *Men gul terdim. Men meva yedim.*

S=ega, O=to‘ldiruvchi, V=kesim.

Sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda tilshunoslar sintaktik nazariyaning gap haqidagi quyidagi talqiniga asoslanishadi:

1. Gapning eng kichik qolipi lisoniy birlik sifatida ongimizda mavjud umumiy birlik bo‘lib, u nutqimizda fikrni til qonunlariga muvofiq tarzda shakllantiruvchi va voqelantiruvchi imkoniyatdir.

2. Gapning eng kichik qolipini belgilashda uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyati ajratiladi.

3. Gapning minimal qolipidan o‘rin oladigan tarkibiy qismalarning mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), ya’ni lug‘aviy birlklarga xos ma’noviy (semantik) va sintaktik, shuningdek, kesimlik shakllariga xos morfologik birikuvchanliklarga asoslanishdir. Gapning eng kichik qurilish qolipidan lug‘aviy birlklarning kengaytiruvchilari (aktatlari va ularni ifodalovchilar) chiqarildi.

4. O‘zbek tilida gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy farq diqqat markazida turdi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Yevropa tillariga bir tarkibli gaplar umuman xos emas va gap hech qachon egasiz bo‘la olmaydi.

Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilida “Men xatni yozaman, sen xatni olib borasan”gapi bilan “Xatni yozaman, olib borasan” gapi orasida keskin farq yo‘q, ya’ni o‘zbek tilida kesim shaxs-son jihatdan mukammal shakllangandir [4,54].

Yuqorida bayon etilgan to‘rt asosga tayanib, sodda gapning eng kichik qurilish qolipi sifatida [WPm] belgilangan. [WPm]ning tarkibida [W] – kesimning, gap kesimining atash, lug‘aviy ma’no bildirishga xizmat qiladigan qismi bo‘lib, mustaqil so‘z turkumiga oid bo‘lgan, ya’ni kesim vazifasida kela oladigan so‘zga, so‘z birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari)ga teng kelishi mumkin. Aniqroq ifodalaganda, [W] lisoniy qolipdagagi imkoniyat bo‘lib, u nutqda atov birligi vazifasini o‘tay oladigan va shu nutqning istalgan birligi (so‘z, so‘z birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi mumkin. [Pm] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi bo‘lib, u nutqda kesimlik kategoriysi ko‘rsatkichlari shaklida voqelanadi.

[WPm]=SGning quyidagi nutqiy hosilalari faqat kesimlik ko‘rsatkichlari bilan shakllangan atov birligidan iborat:

	[W]	[Pm]
1.	<i>Yoz</i>	<i>-moqchi+miz</i>
2.	<i>Ketmoqchi bo‘l</i>	<i>-ma+sa+kerak</i>
3.	<i>O‘qi</i>	<i>Ø</i>
4.	<i>Oqko‘ngil</i>	<i>-siz</i>
4.	<i>Aytib qo‘y</i>	<i>-ma+sa+ngiz</i>
5.	<i>Talaba</i>	<i>-man</i>
6.	<i>Ona bo‘l</i>	<i>-gan+ekan</i>
7.	<i>Bola</i>	<i>edi+m</i>
8.	<i>Kim</i>	<i>-san</i>


9.	<i>O'ttiz</i>	-dir
10.	<i>Baxtiyor</i>	-siz+lar

O'zbek tilida gapning eng kichik qurilish qolipi-[WPm]=SGni belgilashda turkiy tillar, xususan, 'zbek tili gap qurilishida kesimning gap markazini tashkil etishi bosh mezon hisoblanadi. Zero, gapning eng kichik qurilish qolipi kesimlik ko'rsatgichlari bilan shakllangan atov birligidan iborat. [WPm]=SG lisoniy sintaktik birlik sifatida ongimizda mavjud bo'lib, nutqimizda fikrni til qonunlariga muvofiq tarzda shakllantiruvchi va voqelantiruvchi imkoniyatdir.

WPm minimal sodda gapning modeli. M: O'qidim. Yozding. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, o'zbek tilida qo'shma gapning eng kichik modeli quyidagicha bo'ladi:

S₁+V₁,S₂+V₂: **Kuz keldi, havo soviy boshladi.** Ingliz, rus tillarida sodda gap qurilishi quyidagicha belgilangan: S + V + O: Я пишу письмо. Он играют шашку.

I have write the letter. I am reading an interesting article. Qo'shma gaplarning umumiy lisoniy qolipi [WPm R WPm]= QG bo'lib, u quyidagi yana uchta oraliq ko'rinishga ajraladi:



- [WPm , WPm]=QG
- [WPm → WPm]=QG
- [WPm ↔ WPm]=QG

Bu oraliq ko'rinishlar bir qarashda an'anaviy bog'lovchisiz, ergash gapli va bog'langan qo'shma gaplarning ramziy ko'rinishidek tasavvur uyg'otadi. (Masalan, Bahor keldi va olam yashnadi – [WPm,WPm]=QG. Bahor kelsa, olam yashnaydi – [WPm → WPm]=QG. Bahor kelsa va olam yashnasa – [WPm ↔ WPm] =QG kabi). Biroq bunday emas. Professor R.Sayfullayeva o'z ilmiy tadqiqotida "qo'shma gaplar tarkibiy qismlari orasidagi ma'noviy munosabatlarda o'z aksini topadigan bog'lovchilar paradigmasi ta'siridan ozod qilinsa, u hamma til birlklari kabi juda sodda, ixcham va ravshan tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi" [30], – deb yozadi. Qo'shma gaplarning umumiy lisoniy qolipi – [WPm R WPm] =QGni keltirib chiqarish va uning variantlarini kuzatish natijasida uch tipik turni ajratadi: Aslida, mazkur qurilish qoliplari qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lovchi vositalarga ko'ra emas, balki bu sodda gaplarning qo'shma gap tarkibidan chiqarilganda mustaqil qo'llana olish-olmaslik belgisi asosida amalga oshirilgan. Yuqorida modellarning davomi sifatida so'z birikmasi hamda gapning modeli mavjud. **T – H** so'z birikmasining modeli. Bunda **T=tobe so'z, H=hokim so'z** (tobe–hokim). Yaratuvchi modellar tilshunoslik rivojlanishi natijasida yuzaga keldi, mazkur metodning bir qator afzalliklari va pragmatik jihatlari mavjud:

- modellashtirish tavsifiy emas, amaliy metod hisoblanadi;
- modellashtirish metodi har qanday sharoitda optimal («eng qulay», «eng maqbul») hisoblanadi;
- modellashtirish metodi ekonomiya prinsipiga tayanadi. Bunda uzun ta'rif va tavsiflarga ehtiyoj bo'lmaydi;
- obyektni tushuntirish va izohlashni osonlashtiradi va soddalashtiradi.

Modellashtirish metodi keyingi paytlarda tilshunoslikda faol tatbiq qilina boshlandi. "Model" tushunchasi fan va texnikada turli ma'nolarda ishlatalgani bois modellashtirish turlarining yagona tasnifi mavjud emas. Tasnif modelning xarakteriga ko'ra, modellashtirilayotgan obyektning tabiatiga ko'ra, modellashtirish tatbiq qilinayotgan soha yoki yo'nalishga qarab amalga oshirilishi mumkin [4,46]. Modellarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:


1.Tabiyy model– o'rganilayotgan obyekt bilan bir turda bo'ladigan va undan faqat o'lchamlari, jarayonlarining tezligi va ba'zi hollarda yasalgan materiali bilan farq qiladigan model.

2.Matematik model – prototipdan (asl nusxadan) jismoniy tuzilishi bilan farq qiladigan, lekin prototip bilan bir xil matematik tasvirga ega bo‘lgan model.

3.Mantiqiy-matematik model – belgilardan iborat bo‘lgan, tafakkur jarayonini o‘rganishda qo‘llanadigan abstrakt model.

4.Kompyuter modeli – matematik, mantiqiy modellashtirish metodlariga asoslanib kompyuterda algoritim va dasturlardan foydalangan holda yaratildigan model.

Tabiiy modellarga turli xil buyum, jism, ular bilgan narsalarning tasvir, suratlari yoki shu kabilarning kichraytirilgan nusxasi kiradi. Shularni hisobga olib, biz ushbu sinf o‘quvchilari uchun modellarni turli xil rasmlar orqali ham tushuntirishga harakat qildik. Ular quyidagicha ifodalandi: Tasavvurimizda gap bo‘laklarini osmonda ko‘rinib turgan jismlarga o‘xshatsak, biz uchun eng keraklisi quyosh va oy hisoblanadi. Kesim gap bo‘lagini Quyoshga o‘xshatsak, u bir o‘zi bemalol yer yuzini yorita oladi.



Kesim gap bo‘lagi uchun 5-sinf darsligida 2 soat ajratilgan. Kesim ham bir o‘zi gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi. Shaxs-son ma’nolarini ifodalab, nima qil (-di,-yapti va boshq.) ? nima bo‘l (-di, -yapti va boshq.) kimdir? nimadir? qayerdir? so‘roqlariga javob bo‘luvchi mustaqil so‘zlar gapda kesim vazifasini bajaradi. Kesim gapning mazmuniy markazidir. U boshqa bo‘laklarsiz ham gap bo‘la oladi. Masalan: Yaxshimisiz? Keldi. Agar modellashtirishda yuqorida aytganimizdek harflardan foydalsak, lotin harf, so‘zning birinchi harfi olinadi, u bosh harfdha beriladi, ya’ni – K. Quyoshga yordamchi sifatida oy ham yer yuzini yoritishi mumkin.

Demak oy kesimdan keyin turuvchi ega gap bo‘lagi deb tasavvur qilamiz. Lekin oy quyoshsiz yer yuzini yoritolmaganidek, ega ham yolg‘iz holda gap bo‘la olmaydi.




Kesim bilan bog‘lanib kim? nima? qayer? singari so‘roqlarga javob bo‘ladigan bo‘lak ega deyiladi. Ega gap bo‘lagini ham harf yordamida modelashtirdik. Birinchi harfi olindi, modeli –E. Masalan: Bulbul sayradi.(E+K). Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinf ona tili darsligida gap bo‘laklari chuqurroq berilgan. Gap bo‘laklari avvalgi bosqichlarda dastlab bosh bo‘laklar (ega va kesim) va ikkinchi darajali bo‘laklar(to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol)ga ajratilgan bo‘lsa, yuqori bosqichda kesim, ega, ikkinchi darajali bo‘laklar: to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol bo‘laklariga bo‘linib, ularning qaysi so‘z turkumi bilan ifodalanganligi va turlari berilgan. Ega gap bo‘lagi 8-sinf ona tilida 2 soatni o‘z ichiga oladi. Ega ushbu darslikda quyidagicha ifodalangan. Gap kesimining qo‘shimchalaridan anglashilib turgan shaxs-son ma’nosini aniqlashtiruvchi bo‘lak ega(modellashtirishda – E)dir. Ega, asosan, kim? nima? qayer? so‘roqlariga javob bo‘lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo‘ladi, egalik va ko‘plik shakllarini qabul qilishi mumkin. Ega quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi(qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘lsa, shu so‘z turkumining birinchi harfi pastki qismda ega gap bo‘lagi belgisidan keyin berildi):

1. Ot (modeli – O) bilan: Aziz o‘sha kitobni o‘qidi. (EO+A+T+K)

2. Olmosh (modeli - OI) bilan: Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin. (Maqol) (gapning qurilish modeli –EOl+T+K, T+EOl+K) 3. Son (modeli – S) bilan: Ikkalasi ham chiqib ketishdi. (M. Ism.) (gapning qurilish modeli–ES+K) 4. Sifatdosh(sifatdoshning modeli – Sf qilib olindi) bilan: O'qigan o'qdan o'zar, o'qimagan turtkidan shoshar. (Maqol) (ESfd+T+K, ESfd+T+K) 5. Sifat(modeli–Sf) bilan: Yaxshilar ko'paysin, yomon qolmasin. (Qo'shiqdan)(ESf+K,ESf+K) 6. Harakat nomi(modeli – Hn) bilan: O'qish jafoli, keti vafoli. (Maqol) (EHn+K,E+K) 7. Taqlid so'z (modeli - Ts) bilan: Qars ikki qo'lidan chiqadi. (Maqol)1 (gapning qurilish modeli –ETs+A+T+K).

O'zbek tilida ega hamda kesimning o'rni nihoyatda katta. Gap bo'lishi uchun avvalo, kesim gap bo'lagini tushunib, uning turlari bilan tanishgach, ega gap bo'lagi bilan tanishiladi. Har bir gap albatta, gap bo'laklaridan tashkil topadi. Bu esa turlicha namoyon bo'ladi. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar (to'ldiruvchi,aniqlovchi, hol) ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi. Kesim (modeli –K) nima qildi? nima qilyapti? nima qiladi? (ba'zan nechanchi? qanday?) kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Gap tarkibidagi hol asosan felga bog'lanib, gapda fel kesimning paytini, maqsadi, sabab, o'xshatish kabi ma'nolarini izohlab keladi. Shunga ko'ra ikkinchi darajali bo'laklar tarkibidan hol gap tarkibida juda muhim mavqeda turadi. Tabiiy modellarga tayanib biz holni osmon jismilari tarkibidan bulutni tanladik. Chunki bulutda hol izohlaydigan ma'nolarning barchasi mujassam bo'lib, u ham holdek osmondagи o'rniga, tuzilishi, joylashuvi, rangiga ko'ra paytni, maqsadni, sababni, o'xshatish ma'nolarini anglatadi.



Gap bo'laklarining ishtiroki va joylashish o'rni modellashtirib o'rgatilsa, gap tuzayotganda xatoliklarga olib kelmasligi uchun zamin yaratadi. Bu esa inson ko'rgan narsasini kodlashtirib o'rganayotganini hamda ushbu kod uning xotirasida yanada mustahkamroq o'rnashayotganligini bildiradi. Bunda biz modellarning tabiiy va fikriy modellar kabi turlarini o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, oddiydan murakkabga qarab o'rgatishimiz kerak bo'ladi. Chunki yuqori sinflarda ham ona tilining sintaksis bo'limiga tegishli mavzular va ajratilgan saatlar mavjud, o'quvchilar yuqori sinflarga o'tganlarida modellashtirish metodi tarkibidagi mantiqiy modellar, matematik modellardan foydalanish, murakkab grammatik qoidalarni oddiy, tushinarli, tejamli hamda samarali modellar yordamida o'qitish zarur bo'ladi.

Adabiyotlar

- Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent, 2017. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.
- Ruzieva S. Modelleshtirish texnologiyasi umumiy o'rta talimda sintaksis bo'limini o'qitishda optimal yondashuv sifatida //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1-245 b.
- Ruzieva S. Mohir-u mehr-u mahorat //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.-8 b.
- Ruzieva S. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida lug 'at ishi muammolari va ularni yechishning innovatsion yo'llari //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2021. – T. 1. – №. 1.-441 b.

MUALLIFLAR DIQQATIGA!

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingлиз tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiyasi, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingлиз tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingлиз tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingлиз tillarida) bo'lishi lozim.

MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar: nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingan asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiy qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'imasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'chhami - 11 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavuda ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.
- research.samdu.uz platformasiga maqolalar yuboriladi

E-mail: axborotnoma@samdu.uz

**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMY
AXBOROTNOMASI**

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC REPORTS

Texnik muharrir

Sh.Xoliqulov

Muharrirlar:

**I.Sulaymonov
E. Arziqulov
O. Yusupova**

- fil.f.n., dotsent
- f.-m.f.d., dotsent
- fil.f.n., dotsent

Mas'ul muharrirlar:

**D. M. Aronbayev - k.f.n., dotsent
A. Sh. Yarmuxamedov - f.-m.f.n.
X. S. Haydarov - f.-m.f.n., dotsent**

Muassis: Samarqand davlat universiteti Manzil: 140104,
Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
Telefon: (0 366) 239-14-07, Faks: (0 366) 239-13-87 e-mail:

axborotnoma@samdu.uz

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnal tahririyati kompyuterida terildi. Bosishga
25.10.2022 yilda ruxsat etildi. Qog‘oz o‘lchami A-4. Nashriyot hisob tabog‘i 10,00.
Buyurtma raqami 297. Adadi 30 nusxa.

Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.
SamDU bosmaxonasida chop etildi.